

XOLCHAYON SAROYI VA TARIXI.

Xurramov Diyorbek Bahromovich.

Bahronov Og'abek Obidjon o'g'li.

Raxmatova Sarvinoz Ergashevna.

Termiz Davlat Pedagogika Instituti 3- bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xolchayon saroyi yodgorligining o'rganilishi, o'tmishi va bugungi kundagi holati, shuningdek, majmuaning tarkibiy qismi, yaratilish tarixi va uning qadimgi ko'rinishi mufassal bayon etili va Xolchayon saroyini muhofazaga olish va unga e'tiborni kuchaytirish maqsadida huquqiy kafolatini ta'minlash va turizmni rivojlantirish zarurligi haqida ham bayon qilingan, xulosa va takliflar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Antik, davlat, Chag'aniyon, Pugachenkova, Dalvarzintepa, qabila, Qorabog'tepa, Xonaqotepa, Yunon-Baqtriya, Kushon davlati, ark, madaniyat.*

KIRISH. Mustaqillikning bizga bergan eng oliy ne'matlaridan biri sifatida, qadim o'tmishimizga va tarixan shakllanib kelgan boy madaniyatimizga e'tibor yanada kuchaytirish, ularni chuqur o'rganish hamda tiklash, muqaddas qadamjolarni obod qilish, yosh avlodga ular haqida bilim ko'nikmalar berish, davlatchiligimiz yo'lida ulkan jasoratlar ko'rsatgan buyuk ajdodlarimiz kabi komil inson qilib tarbiyalash imkonini yaratganligidir desam mubolag'a bo'lmaydi. Yozma manbalarda Surxon vodiysida Sag'aniyon(Chag'aniyon)dan tashqari yana Bosand, Zinvor, Burob, Sangardak, Rigdasht, Qumg'onak va boshqa shaharlar ham eslatiladi. Maqdisiy (X asr) O'rta asrlarda Chag'aniyonda 16000 turar joy bo'lganligini qayd etadi. Bu raqam mubolag'a bo'lmasa kerak. Hozirgacha saqlanib qolgan ko'plab tepalar (ulardan qanchadan-qanchasi vaqt o'tishi bilan yo'q bo'lib ham ketgan) o'rta asrlarga doir ashyoviy dalillarni o'z bag'rida yashirgan bo'lib, vaqt jihatdan mo'g'ullar istilosi davrigacha yetib kelgandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Dalvarzintepa qal'asini o'rganishni biz qal'adan boshladik. 1962 yilning kuzida qo'rg'on devorining g'arbiy qismida (janubi-g'arbiy burchak yaqinida) B. Turg'unov va D.Sidorovlar dastlabki qidiruv ishlar o'tkazdilar. Xalq orasida hozirgi Dalvarzintepa juda qadimiy mamlakat poytaxtining qoldiqlaridir, hukmdori afsonaviy qahramon Dol (Zol) bo'lgan, arablar bu shaharni xalifa Alining bevosita rahnamoligida egallaganlar, so'ngra bu shaharda hayot butunlay so'ngan, degan naql yuradi. Dalvarzintepaning juda katta joyni egallaganligi, qurilishlar zichligi, arxeologik qatlamlar qalinligi mazkur qadimiy shaharning miloddan oldingi birinchi asrda va milodning dastlabki yillarida barq urib yashnab turgan viloyat markazi bo'lganligidan dalolat beradi.

Xolchayon qal'a devori — [O'zbekistondagi](#) madaniy me'ros obyekti. Arxeologiya yodgorligi. Obyekt davri: I—III asrlar . [Surxondaryo viloyatining Denov tumanida](#) joylashgan. Obyekt manzili: “Qorabog‘tepa” MFY . Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquq: Davlat mulki. Surxondaryo viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida. [O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining](#) qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda [Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga](#) kiritilgan — davlat muhofazasiga olingan Xolchayon xarobalari Surxondaryoning o‘ng sohilida, aniqrog‘i, uning qadimgi qayirida, hozirgi Denov tumanining Xolchayon shirkat xo‘jaligi hududida joylashgan. Xolchayon qishlog‘idagi paxta dalasining shimoliy qismida bo‘rtib chiqqan do‘ngliklarni ko‘rish mumkin. Ulardan ba’zilarining nomi bor, bir qismi nomsiz. Ayrim tepaliklar turar joylar tagida qolmoqda yoki dalalarni haydab tekislash jarayonida yo‘q bo‘lib ketyapti. Bu do‘ngliklarning eng yirigi Qorabog‘tepa deb ataladi. Ayni paytda uning kattagina qismida imoratlar qurilgan, pastqamroq qismi esa ekinzorga aylantirilgan. Bu joyning yuza qismidan hamda chuqur bo‘lib qolgan yerlaridan topilgan arxeologik ashyolar unchalik ko‘p emas, aksari antik davrga oid sirlanmagan sopol parchalaridir, so‘nggi feodalizm davriga xos sirlangan sopol bo‘laklari ham uchraydi. Bu do‘ngliklarning eng yirigi Qorabog‘tepa deb ataladi. Ayni paytda uning kattagina qismida imoratlar qurilgan, pastqamroq qismi esa ekinzorga aylantirilgan. Bu joyning yuza qismidan hamda chuqur bo‘lib qolgan yerlaridan topilgan arxeologik ashyolar unchalik ko‘p emas, aksari antik davrga oid sirlanmagan sopol parchalaridir, so‘nggi feodalizm davriga xos sirlangan sopol bo‘laklari ham uchraydi. Erta bahorda yerlar endi haydalib ekilgan va g‘o‘za nihollari maydonni hali qoplab olmagan paytda, bu joylardagi katta-kichik tepaliklar oralig‘ida ko‘plab arxeologik ashyolar sochilib yotganini ko‘rish mumkin. Antik davrga xos arxeologik ashyolar siniqlari Xonaqotepadan shimolga 1 kilometr, janubga 400 metr, g‘arbga 700 metr chamasi, sharqqa Qorabog‘tepagacha maydonda tarqalgan. Ashyolarning tarqalish chegarasiga qarab, bu yerdagi qadimgi qarorgoh shimoldan janubga 2 kilometr va sharqdan g‘arbga 1,5 kilometr maydonni egallagan, desa

Erta bahorda yerlar endi haydalib ekilgan va g‘o‘za nihollari maydonni hali qoplab olmagan paytda, bu joylardagi katta-kichik tepaliklar oralig‘ida ko‘plab arxeologik ashyolar sochilib yotganini ko‘rish mumkin. Antik davrga xos arxeologik ashyolar siniqlari Xonaqotepadan shimolga 1 kilometr, janubga 400 metr, g‘arbga 700 metr chamasi, sharqqa Qorabog‘tepagacha maydonda tarqalgan. Ashyolarning tarqalish chegarasiga qarab, bu yerdagi qadimgi qarorgoh shimoldan janubga 2 kilometr va sharqdan g‘arbga 1,5 kilometr maydonni egallagan, desa bo‘ladi. Mahalliy keksalar aytishicha, Xolchayon tevarak-atrofi hali o‘zlashtirilmagan paytda, bu yerlarda baland-past tepaliklar anchagina ekan. Qadimiy qurilishlar o‘rnini anglatuvchi bu do‘ngliklar

keyinchalik yerlarni tekislash, haydash vaqtida yo'qolib ketgan. Xolchayonning umumiy arxeologik-topografik manzarasi bu joyda qishloq xo'jalik faoliyati bilan bog'lik manzilgoh bo'lganligini va Dalvarzintepaga o'xshash xandaq va qo'rg'on bilan o'rab olingan shahar mavjud bo'lmaganligini ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Xolchayonda tadqiqot olib borilgan bir nechta joyda Grek-Baqtriya podshohligi davri (mil.avv III-II asrlar) arxeologiyasi aks etgan. Demetriy tangasinig topilishi hamda Qorabog'tepata mil.avv II-I asrlarga oid imoratlar qayd etilgani bunga misol bo'la oladi. Xolchayonda ossuariy sifatida og'ir qopqoqli a'lo darajada tayyorlangan xum tanlangan. Uning ichida bir tup kukrak suyagi va shikastlangan bosh suyagi yotardi. Aftidan "ko'mishga tayyorlash" marosimida "Avesto"dagi mazdakchilik qonun-qoidalariga amal qilingan kurinadi. Murda dastlab yirtkich qushlar yoki maxsus boqilgan murdaxur itlar yeb ketishi uchun qo'yilgan. So'ngra tozalangan suyak qoldiqlari suyakdonga joylashtirilgan[2]. Strabon yozgan ma'lumotga ko'ra, Baqtriyadagi shahar devori orti toza bo'lgan, biroq ichki katta qismi "odam suyagi bilan to'lib-toshib ketgan ekan". Shunday qilib, gap marhumning suyagini qandaydir tashqi qabristonda emas, balki aynan aholi maskani ichida saqlash to'g'risida borayotir. Buni Xolchayondagi xum —ossuariyning qadimiy qo'rg'onning aholi zich yashaydigan qismida saqlanib qolganligi ham tasdiqlaydi. Agar Grek-Baqtriya zodagonlari asosan grek xudolariga sig'ingan bo'lsalar, Baqtriyada omma orasida o'z e'tiqodlari va udumlari amal qilgan va Xolchayondagi ossuariy(idish)ga solib ko'mish marosimi bunga yorqin dalildir. Bu masalada Xolchayondan topilgan miloddan oldingi III—II asrlarga oid sanamlar haykalchalari, shuningdek, suyakdan ishlangan yalang'och ma'buda shakli aks etgan taqinchoq qadimda Sharqda mavjud bo'lgan Ona Xudoga sig'inish udumi bilan bog'liqdir. Ayni paytda, Ellin badiiy uslublarining Xolchayonning Baqtriya davri arxitekturasiga ta'sirini aks ettiruvchi topilmalar ham bor. Xolchayon taraqqiyotining yirik qurulish tadbirlari bilan bog'liq navbatdagi bosqichi mil.avv II I asrlarga taalluqlidir. Bu davr tarixiy jihatdan ulkan siyosiy voqealar bilan bog'langan. Mil.avv 140-yillarda Gelioklning o'limi bilan Grek-Baqtriya podshohligining inqirozi yuz beradi. Grek Baqtriya podshohligining inqirozga uchrashi, aftidan Baqtriyaga saklarning dastlabki bostirib kelishi va o'zlari egallagan hududda o'roq bo'lib qolishi, so'ngra yuechjilar bostirib kelib, saklarni Amudaryoning narigi sohiliga uloqtirib yuborishi davriga tug'ri keladi. Xolchayondan chiqqan sak-yuejiy davri sopollari kulolchilikning yanada rivojlanganligini, sopol buyumlar sifatining yaxshilanganligini, qizil tuproqli, ko'p miqdorda sariq tuproqli sopollar aksariyatini tashkil etishni, qizil loydan ishlangan sopollarning to'q qizil yoki to'q jigarrang tusda angob tarzida va qora rangga bo'yashning keng yoyilishini ifodalaydi. Kulolchilik yuqori darajada rivojlangan bo'lib, Chag'aniyonda aholi qarorgohlarining o'sishi hamda rivojlanib borgan bozori,

xususan, tog'lik chorvador aholi bilan tovar ayirboshlash talablariga to'la javob bergan. Xolchayondan topilgan sopollar to'la-to'kis shahar hunarmandchiligi uslubiga xosdir. Bu yerda ko'chmanchilik davri ashyolari aytarli uchramaydi. Xolchayondagi saroy binosi miloddan avvalgi I asrning ikkinchi yarmida qad ko'targan. Buning vaqtini arxeologik ma'lumotlar asosida hamda ayvon va mehmonxona bezaklari — gildan yasalgan haykalchalarning yasali sh xususiyatlaridan aniqlash mumkin. Saroy, aftidan, hukmdor xonadonining qaysidir a'zosi tomonidan qurilgan bo'lishi mumkin. Saroyning uncha katta bo'lmaganligi uning sohibining O'rta Osiyo tarixi sahnasida kattaroq siyosiy e'tiborga erishmaganligini yoki bu saroyning ikkinchi darajali ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. U holda asosiy yirik saroy, shubhasiz, poytaxt shahar — Dalvarzintepada (yoki Budrachda) bo'ladi. Dastlab imorat kichikroq qabulxona sifatida barpo etilgan va unda qabul hamda to'y marosimlari o'tkazilgan. Keyinchalik bu imorat shuhrat topib, "ilohiy ajdodlar uyi" vazifasini o'tay boshlaydi va butun Buyuk Kushonlar hukmronligi davrida o'zining bu mavqeini saqlab qoladi. Xolchayon yodgorligida tadqiq etilgan I—II asrlarga doir madaniy qatlamlardan ko'plab sermazmun ma'lumot olsa bo'ladi. Arxeologik topilmalarning eng ko'p tarqalgan turi bo'lgan sopol buyumlar ishlab chiqarishda usullarning va shakllarning yanada takomillashib borganligi ko'zga tashlanadi. Sopol idishlardan tashqari, charx-urchuqlar hamda osma to'quv asboblarning topilganligi qadimiy Chag'oniyonda hunarmandchilik keng ko'lamda rivojlanganligidan dalolat beradi. Xolchayon saroyi "xazina"sida xorijiy mamlakatlardan keltirilgan ashyolar — sharqiy Rim viloyatlarida ishlangan oyna-shisha, sadaf, arabiy yoki hindcha qizg'ish qimmatbaho toshlar (serdoliklar), xitoy ipak matolari qayd etilganligi antik Chag'oniyonning chet ellar bilan keng ko'lamda iqtisodiy aloqada bo'lganligidan dalolatdir. Milodiy II asr oxiri — III asr boshlarida Kushon imperiyasi inqirozga yuz tutadi. Bu jarayon Xolchayonda ayniqsa yorqin iz qoldirgan. Qorabog'tepa istehkomi darvozaxonasi katta yong'inda qolgan va uning izlari Kushonlar davri qurilishlarida yong'in qatlami tarzida saqlangan. Xolchayon taqdiriga kelsak, Qorabog'tepa istehkomi xarobaga aylanadi, saroy va janubi sharqiy uy tashlab ketiladi. Faqat g'arbiy uyning tepalikka aylangan xarobasi ustida III asr oxirlari va IV asr boshlariga kelib kichkina qishloq uyi qad ko'taradi, ammo tez orada u ham tashlab ketiladi, uydagi yong'in izlari bosqinchilarning shiddatkor hujumlari deyarli tashlandiq bo'lib qolgan ushbu joylarni ham chetlab o'tmagan, deb o'ylashga asos bo'ladi. Xolchayonda V asrga oid arxeologik ashyolar mavjud emas. Xolchayondan IV asr oxiri - VII asrga oid turk-sug'd turkumiga taalluqli ikkita tanga topildi. Ular Sug'd va Shoshdan topilgan tangalar bilan old tomon tuzilishi ikonografik jihatdan o'xshasa ham o'lardan ma'lum darajada farq qiladi[5]. Bu tangalar amudaryoning shimoliy qismidagi ayrim feodal viloyatlar turk xoqonligiga mansubligini anglatadi, tangalar va boshqa belgilardagi

farq esa Chag'onxudotlar zarbining o'ziga xos xususiyatlarini aks etgiradi. Xolchayonda shohlar va homiy xudolar obrazlari yonma-yon tasvirlangan. Baqtriyaning tarixiy aloqalari faqat Grek-Rim olami bilangina chegaralanib qolmagan. Xolchayonda ko'p hollarda, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, Sharqiy Parfiya san'ati bilan o'zaro aloqa sezilarli bo'lgan. Bu aloqa ayniqsa me'moriy shakllar va ashyolarda saroyini bezagan haykallar obrazlari guruhida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu o'zaro aloqa xronologik (davriy) jihatdan asosan milodan avvalgi II — I asr — Grek-Baqtriya podshohligi va sak-yuejii davrini o'z ichiga oladi. Bu vaqtda aftidan Arshakidlar davlat, ayniqsa, hind-sak va hind-parfiya mulklari bilan bevosita aloqalar mavjud bo'lgan. Buyuk Kushonlar davrida, ya'ni O'rta Sharqning ikkita ulug'vor quldorlik davlati — Arshakidlarning Parfiya davlati va Kushon podshohligi siyosiy raqobat holatida bo'lgan vaqtdan boshlab bu aloqalar bir-biri bilan tutashdi. Biroq, Hindiston yarimoroli shimoliy qismining Kushon podshohligi tarkibiga kirishi milodning dastlabki asrlarida Hind aloqalarining kuchayishiga olib keldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Hind badiiy an'anlari ta'siri Xolchayon saroyining Kushonlar davri qatlamidan va Termiz tumanidagi Kushonlar shahristonidan topilgan maymunning pishiq sopol haykalchalarida ko'rinadi. Kushonlar davrida bu haykalchalar O'rta Osiyoda keng tarqalib, chegarasi shimoli-g'arbda Marv va Xorazmgacha, shimoli-sharqda Xutangacha yetgan. Baribir, Xolchayon pishiq sopol buyumlari orasida maymun haykalchasi yagonadir. O'tgan asrning 60-yillarida Afg'onistonda Fransiya arxeologik delegatsiyasi boshlig'i D.Shlyumberje Gandhar muammosi tahlili bilan jiddiy shug'ullandi. Uning yozishicha, "Grek Baqtriya san'ati" mavjud bo'lib, bu san'at hozircha Baqtriyaning qandaydir ufqida yashirinib yotibdi. Fransuz olimining bashorati Xolchayonni tadqiq etish miqyosida o'zining yorqin tasdig'ini topdi. Biroq, buni olim taklif etgandek "Grek-Baqtriya san'ati" emas, balki shunchaki "Baqtriya san'ati" deyish to'g'riroq bo'ladi. Xolchayon bunga to'la-to'kis asos beradi. Ammo bu yodgorlikning ahamiyati faqat Gandhar maktabi shakllanishida Baqtriya qo'shgan hissa bilangina cheklanib qolmaydi. Xolchayon saroyi Grek-Baqtriya davriga emas, balki Sak-yuejii davriga taalluqlidir va bu davrda grek an'alarining bevosita ta'siridan chiqilgan va uning o'rnini mahalliy prinsiplar asosida me'morchilik va haykaltaroshlikning mustaqil yo'nalishi egallagan edi. Bu yodgorlik ellinizmni ijodiy o'zlashtirish jarayonida qandaydir aralashma emas, balki Baqtriya badiiy madaniyatining original shakli vujudga kelganligi va unda antik O'rta Osiyoning mustaqil yo'nalishi va badiiy uslublari o'z aksini topganligidan darak beradi. Xulosa o'rnida, yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash joizki, o'lkamiz qadim davlardan oq rivojlangan madaniyatlarga ega bo'lgan. Biz buni nafaqat ushbu maqolamizda o'rgangan Xolchayon saroyi yodgorligi misolida balki, yurtimizda joylashgan 2700 dan ortiq tarixiy obidalarining har

birida ko‘rishimiz mumkin. Ular orasida esa Xolchayon saroyi yodgorligi ham alohida o‘rin tutadi va o‘zining boy o‘tmishi bilan ham muhim obyekt hisoblanadi. Uni o‘rganish orqali tarixni chuqurroq o‘rganishimizga yordam beradi. Mana shunday arxeologik obyektlarni o‘rganish jarayonida o‘zimiz bilmagan yangi ma’lumotlarga ham ega bo‘lamiz va ular haqida bimalol o‘z fikrlarimizni bildirishimiz mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chag‘aniyon tarixi, To‘plab nashrga tayyorlovchi va ruscha manbalardan tarjimon Abdinazar Xidirov, “Toshkent islom universiteti” – 2002.16-34 betlar. 2. 5. 6. 7. Пугаченкова. Г.А. Халчаян, К проблеме художественной культуры Северной Бактрии, Т-1966.
2. Isomiddinov, S.A., & Kamolov, S.A. (2023). XOLCHAYON SAROYI QO‘RIQLANISHGA MUHTOJ. Educational Research in Universal Sciences, 2(17), 897-903.
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 456-457 betlar.
4. Пугаченкова. Г.А, Ртвеладзе Е.В, Северная Бактрия – Тохаристан, Очерки истории и культуры, Т-1990 4.
5. Ртвеладзе Е.В, Великий шёлковый путь, Т-1999